

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY: MA‘RIFAT VA TARAQQIYOT YO‘LIDAGI ULUG‘ TARAQQIYPARVAR

Bekchanova Manzura

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islomshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy maslahatchi:

Akademiya yoshlar yetakchisi A.To‘xtanazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zbek xalqining ma‘rifat tarixi va rivojlanishidagi bebaho o‘rni, shuningdek, uning xalqni ma‘rifati va taraqqiyoti yo‘lida ilgari surgan faoliyati va ushbu jarayonga qo‘shgan beqiyos hissasi batafsil yoritiladi.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, ma‘rifat, rivojlanish, tafakkur, jadidchilik, yangi usul maktablari, bilim, targ‘ibot.

Har bir xalqning tarixida jamiyat taraqqiyotiga turtki bergan va o‘z davrining tafakkuriga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan buyuk shaxslar bo‘lgan. Ularning maydonga chiqishi jamiyatning o‘sha paytdagi ehtiyojlari va ijtimoiy-siyosiy holati bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, umidsizlik va tushkunlik kuchaygan davrlarda bunday shaxslar xalqni ruhlantirib, ularni kelajakka ishonch bilan qarashga undaydilar hamda milliy manfaatlarini himoya qilish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatadilar. XX asr o‘zbek ziyolilarining yirik namoyandasi, jadidchilik harakatining ilg‘or vakillaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudi ham ana shunday shaxslar sirasiga kiradi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mustamlaka tuzumining ta‘sirida qolib, mutaassiblik va qoloqlik girdobiga tushdi. Bu esa xalqning nafaqat iqtisodiy, balki ma‘naviy, madaniy va ta‘lim sohalarida ham turg‘unlikka olib keldi. Aynan shunday murakkab davrda Mahmudxo‘ja Behbudi ilg‘or ziyolilardan biri sifatida jamiyatdagi orqaga tortuvchi muammolar bilan yuzlashdi. U dunyodagi yangiliklardan

xabardor bo'lish uchun xorijiy matbuotni kuzatdi va musulmon mamlakatlariga qilgan safarlari chog'ida u yerdagi ta'lim tizimi hamda maktablarda qo'llanilayotgan usullarni o'rganishga intildi. Ma'rifatparvarchilik va xalq taraqqiyoti yo'lidagi ilk qadamlar ham aynan maktablardan e'tibor berishdan boshlangan, xususan yangi usul maktablari faoliyatidan.

Turkistonda yangi usul yoki jadid maktablarining paydo bo'lishi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ta'lim tizimini isloh qilish g'oyasi Turkistonga Qrim, Qozon va Ozarbayjonga qaraganda 15-20 yil kechikib yetib kelgan. Buning asosiy sababi Turkiston general-gubernatorligining mahalliy aholining ma'rifatlanishiga ongli ravishda to'sqinlik qilgan siyosati edi.¹ Shunga qaramay Mahmudxo'ja Behbuddiy o'tgan asr boshlarida “Usuli savtiya” (to'vushli metodga asoslangan) maktablarni ochishga bel bog'ladi.

Samarqandda ochilgan dastlabki “usuli savtiya” maktablaridan biri 1903 yili Jomboy tumanining Rajabamin qishlog'ida, atoqli ma'rifatparvar Abduqodir Shakuriyning hovlisida ochilgan. Bu maktabning tashkil etilishi va faoliyat yuritishiga Behbudi o'z hissasini qo'shdi. Ammo maktab o'quvchilari orasida shahardan qatnovchilar oz bo'lmaganligi va ularning Rajabamin qishlog'iga qatnashlari qiyin bo'lgani bois Behbudi uni o'z hovlisiga ko'chirdi. Shu yillarda u mazkur maktab o'quvchilari uchun “Muntaxabi jutrofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Mahalliy jutrofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muxtasari jutrofiyai Rusiy” (“Rossiyaning qisqacha geografiyasi”), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar kitobi”), “Muxtasari tarixi Islom” (“Islomning qisqacha tarixi”) singari darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratdi². Yuqorida sanab o'tilgan o'quv qo'llanmalari, albatta, Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik yo'lidagi bebaho o'rnini ko'rsatadigan aniq bir misol bo'la olardi. U bilim olish jarayonida diniy va dunyoviy bilimlarni bir-

¹ Karimov, Naim. Mahmudxo'ja Behbudi / N. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2011. – 22b.

² Shu yerdan. – 23 b.

biridan ajratmasdan, har ikkala soha ham xalq taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan.

Ma'rifatni asosiy taraqqiyot kalati deb bilgan Mahmudxo'ja Behbudiy, shunday fikr bildirgan: “ Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib borish kerak. Millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lish lozim. Millat uchun oyna kerak, toki undan o'z qaboqatini ham, malohatini ham ko'ra olsun.”³ Haqiqatdan ham, bu fikrlar har qanday davr uchun nihoyatda dolzarb bo'lib, insonni chuqur o'yga toldiradi, unga yangicha qarash va harakatga ilhom bag'ishlaydi. Ma'rifat yo'lida jon fido qilgan, xalqning fidoyi farzandi Mahmudxo'ja Behbudiyning bu so'zlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki tarix shuni ko'rsatadiki, ma'rifat nuri bilan yoritilmagan yo'llar odamzodni zalolat sari yetaklaydi. Jamiyat rivoji, millat taraqqiyoti, Vatan istiqboli — barchasi ilmsiz, tafakkursiz, ma'naviy yuksalishsiz mumkin emas.

Taraqqiyparvar ta'lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruratini to'g'ri anglagan. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining mashhur “Padarkush” dramasida ziyoli obrazi orqali xalqqa “Millatning yuzi – ilm va hunardir” degan g'oyani yetkazishga harakat qildi: “Bu zamonda ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kunga qo'lidan ketganidek, axloq va obro'si ham qo'ldan chiqadi, hatto dini ham zaif bo'ladi. Buning uchun biz, musulmonlarni o'qitishga harakat qilishimiz lozimdir, vaholanki, dinimiz har qanday foydali ilmlarni o'rganishni beshikdan qabrgacha farz qilgan. Bu hukm – shariat hukmidir.”⁴

Bu yerda Behbudiy ilm va hunarning insoniyat hayotidagi o'rni haqida gapirmoqda. U, ilm va hunar xalqni taraqqiy ettiradigan kuch sifatida qaraladi. Agar jamiyat ilmga, bilimga, hunarga ega bo'lmasa, uning iqtisodiy va axloqiy holati tobora yomonlashadi. U ilmni jamiyatning rivojlanishining asosi deb bilgan. Axloq va obro'ni

³ Xalim Saidov. Asl farzand. 2014-yil 22-yanvar. “Ma'rifat” gazetasidan olindi.

⁴ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999. – 43b.

yo'qotish, shuningdek, diniy e'tiqodning zaiflashishi ham ilmning yetishmasligidan kelib chiqadi. Behbudiy ilmning asosiy vositasi bo'lgan ma'rifatning xalqning ijtimoiy, axloqiy va diniy taraqqiyotida ta'sirini ko'rsatgan.

Taraqqiyparvarning eng ulug' orzusi mustaqil va erkin davlat barpo etish edi. Mahmudxo'ja Behbudiy ham bu yo'lda fidokorona harakat qilgan siymolardan biri bo'lib, uning nazarida, kelajakdagi davlat tuzumi barcha millat va elatlarning tengligi hamda birdamligi asosida shakllanishi lozim edi.

Behbudiy Turkiston ziyolilari orasida birinchi bo'lib Turkiston uchun muxtoriyat berilishi masalasini dadil ko'targan⁵. 1907-yil 24-aprelda Rossiya Davlat Dumasi musulmon fraksiyasiga yuborgan "Loyiha"sida bu masalaga alohida to'xtalgan edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bayoni haqiqiyat" maqolasida shunday so'zlar keltirilgan: "Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining diniy va siyosiy huquqlarini harakat va ittifoq orqali boshqalardan oladi... Biz istaymizki, butun Rossiya musulmonlari muxtoriyat usuli asosida yashasinlar"⁶.

Xulosa qilib aytadegan bo'lsak, ushbu maqola Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zbek xalqining ma'rifat tarixidagi bebaho o'rni va uning taraqqiyot yo'lida qo'shgan ulkan hissasini yoritadi. Behbudiy, jadidchilik harakatining ilg'or vakili sifatida, ta'lim va ma'rifatning xalqni yuksaltirishdagi muhim rolini tushunib, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirishga intildi. Uning o'zbek jamiyatidagi ta'lim tizimining islohoti, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyati, shuningdek, ilm-fan va hunarning jamiyat taraqqiyotidagi muhimligini ta'kidlashi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Behbudiy, ilmni jamiyatning rivojlanishining asosiy vositasi deb bilgan va ta'lim orqali xalqni ma'naviy yuksaltirishni maqsad qilgan. U, shuningdek, milliy manfaatlarni himoya qilish, xalqning diniy, siyosiy huquqlarini ta'minlash

⁵ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent – 2018. 44-b.

⁶ Shu yerdan 474-476-b.

masalalarida ham faol bo'lgan. Uning tarixdagi o'rni, shubhasiz, ta'lim, ma'rifat va taraqqiyot yo'lida qilgan fidokorona harakatlari bilan beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, Naim. Mahmudxo'ja Behbudiy / N. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2011. – 80-b.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999. – 43b.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 1-jild .Toshkent – 2018.
4. Xalim Saidov. Asl farzand. 2014-yil 22-yanvar. “Ma'rifat” gazetasi.